

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI  
RIVOJLANTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI****D.B.Mirzabaeva,***University of innovation technologies**"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrası assistenti***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18677165>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishning lingvistik asoslari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Yozma nutqni shakllantirish jarayonida fonetik, leksik va grammatik bilimlarning o'rni va ahamiyati, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning savodxonligi, lug'at boyligi hamda grammatik bilimlarining rivojlanishiga ta'siri yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, yozma nutq, lingvistik bilimlar, fonetika, leksika, grammatika, savodxonlik, metodik yondashuv.

**Аннотация.** В данной статье теоретически и практически анализируются лингвистические основы развития письменной речи у учащихся начальных классов. Освещается роль и значение фонетических, лексических и грамматических знаний в процессе формирования письменной речи, влияние практических занятий, направленных на развитие письменной речи, на развитие грамотности, словарного запаса и грамматических знаний учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, письменная речь, лингвистические знания, фонетика, лексика, грамматика, грамотность, методический подход.

**Abstract.** In this article, the linguistic foundations of developing written language in primary school students are theoretically and practically analyzed. The role and importance of phonetic, lexical, and grammatical knowledge in the process of forming written language, the influence of practical exercises aimed at developing written language on the development of students' literacy, vocabulary, and grammatical knowledge, are highlighted.

**Key words:** primary education, written language, linguistic knowledge, phonetics, vocabulary, grammar, literacy, methodological approach.

**Kirish.** Til inson tafakkurini shakllantiruvchi va uni jamiyat bilan bog'lovchi muhim vositadir. Maktab ta'limining ilk bosqichidayoq o'quvchilarning til imkoniyatlarini rivojlantirish, ayniqsa yozma nutqni shakllantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yozma nutq o'quvchining fikrlash darajasi, dunyoqarashi hamda bilimni o'zlashtirish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozma nutqni egallash jarayonida ko'plab lingvistik qiyinchiliklarga duch keladilar. So'zlarni to'g'ri tanlash, gaplarni mazmunan bog'lash, grammatik me'yorlarga amal qilish va yozuv qoidalarini ongli qo'llash kabi ko'nikmalar asta-sekinlik bilan shakllanadi. Bu jarayon tasodifiy emas, balki tilshunoslik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etilsa samarali natijaga erishiladi. Yozma nutqni rivojlantirishning lingvistik asoslari o'quvchilarga til birliklarining mazmun va vazifasini anglatish, ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llashni o'rgatish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, fonetik, leksik va grammatik bilimlarning uyg'un holda berilishi

boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqida aniqlik, ravonlik va mantiqiylikni ta'minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va tilshunoslik fanlarining o'zaro uyg'unligi asosida tadqiq etiladi. Nutq – kishilarning ongida mavjud lisoniy imkoniyatlarni og'zaki yoki yozma shakllarda voqelantirilishi. Masalan, aytilgan yoki yozilgan gaplarimiz nutq bo'lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo'ladi [4]. Yozma nutq tilning murakkab shakli bo'lib, u o'quvchidan nutqiy tafakkur, til birliklarini ongli tanlash hamda ularni grammatik me'yorlar asosida qo'llashni talab etadi. Yozma nutq – maxsus ta'lim tufayli namoyon bo'ladigan axborotni grafik ko'rinishda uzatish shakli [1] Shuning uchun ham yozma nutqni rivojlantirish jarayoni muayyan lingvistik asoslarga tayanadi. Lingvistik nuqtai nazardan yozma nutq fonetik, leksik va grammatik komponentlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Fonetik bilimlar tovush va harf munosabatini to'g'ri anglashni, leksik bilimlar so'z ma'nolarini farqlash va o'rinli qo'llashni, grammatik bilimlar esa gap va matn tuzilishini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning har biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim davrida yozma nutqning rivojlanishi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Bu bosqichda o'quvchilarning nutqiy faoliyati asosan ko'rgazmalilik, takrorlash va amaliy mashqlar orqali rivojlantiriladi. Nazariy bilimlar sodda va tushunarli shaklda berilishi hamda yozma nutq jarayonida amaliy qo'llanilishi zarur.

F.Buslayev 1844-yilda yozgan "Ona tilini o'qitish haqida" kitobida, bolaga ona tilini o'rgatishda nutqni rivojlantirishdan boshlash kerak, ya'ni bola tilni dastlab amaliy o'zlashtirishi lozim, degan g'oyani ilgari surgan [2]. 1871-yilda K.Ushinskiy maktab o'quvchilari uchun "Ona tili" darsliklarini yaratish orqali u ona tilini boshlang'ich o'qitish tizimini ishlab chiqadi. Unda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan bir qator lug'at, mantiqiy va uslubiy mashqlar mujassam bo'lgan [5]. XX asrning dastlabki yillarida P.Afanasev, N.Sokolov, G.Tumim va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari yozma nutqni rivojlantirishga bag'ishlangan eng sara metodik adabiyotlar sifatida alohida e'tibor qozongan. Ushbu manbalarda imlo qoidalarini o'rgatish jarayoni o'quvchilarning fikrlarini yozma tarzda ifodalashi, rasmlar asosida tasvirlar yaratishi hamda kuzatishlar natijalarini bayon etishi bilan chambarchas bog'liq holda yoritilgan [3]

Tilshunoslik nazariyasiga ko'ra, yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan aniqroq va izchilroq bo'lishi bilan farqlanadi. Shu bois boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga matn tuzish, fikrni ketma-ket bayon etish, grammatik bog'lanishlarni to'g'ri qo'llash kabi ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Nazariy jihatdan puxta asoslangan ta'lim jarayoni yozma nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish jarayonining lingvistik asoslarini aniqlash va ularning amaliy

samaradorligini baholashga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi ta'lim jarayonini tizimli, izchil va ilmiy asosda o'rganishga xizmat qiluvchi umumilmiy hamda maxsus pedagogik-tadqiqot metodlariga tayanadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil metodi asosiy o'rin tutadi. Ushbu metod yordamida tilshunoslik, pedagogika va metodika sohalaridagi ilmiy manbalar, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar tahlil qilindi. Nazariy manbalarni o'rganish orqali yozma nutqni rivojlantirishga oid lingvistik qarashlar, tushunchalar va yondashuvlar tizimlashtirildi.

Empirik tadqiqot metodlari doirasida pedagogik kuzatish, suhbat va yozma ishlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diktant, bayon va insho kabi yozma ishlari o'rganilib, ularning yozma nutqida uchraydigan fonetik, leksik va grammatik xatolar aniqlandi. Kuzatishlar davomida yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan dars jarayonlari, qo'llanilayotgan metod va mashqlar tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod orqali an'anaviy yondashuv asosida olib borilgan yozma ishlar bilan lingvistik asoslar negizida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijalari taqqoslandi. Olingan natijalar yozma nutqni rivojlantirishda lingvistik yondashuvning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarildi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish jarayoni tilshunoslikning asosiy bo'limlari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Yozma nutq og'zaki nutqning grafik ifodasidan iborat bo'lib, ayni paytda unda mujassam bo'lgan ma'no va ohang mazmunini ham o'z ichiga oladi [6]. Yozma nutqni shakllantirishda fonetik, leksik va grammatik bilimlarning izchil va tizimli o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu lingvistik asoslar o'quvchilarning yozma ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Fonetik bilimlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqning to'g'ri shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tovush va harf munosabatini anglash, so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozilishini o'rganish savodxonlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, bo'g'inlarga ajratish, urg'uni to'g'ri qo'llash, tovushlarning talaffuzdagi o'zgarishlarini farqlay olish ko'nikmalari o'quvchilarning imlo xatolarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda fonetik mashqlar asosida olib borilgan yozma ishlar o'quvchilarda tovushlarni aniq eshitish va ularni yozuvda to'g'ri ifodalash malakasini shakllantiradi. Bu esa yozma nutqning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi.

2. Yozma nutqning mazmunan boy va ifodali bo'lishi o'quvchining lug'at zahirasiga bevosita bog'liqdir. Leksik bilimlar o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini to'g'ri anglash,

ularni o'rinli va maqsadga muvofiq qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda sinonim, antonim, ko'p ma'noli so'zlar ustida olib boriladigan ishlar o'quvchilarning fikrini aniq va ta'sirchan ifodalashiga yordam beradi. So'z boyligi yetarli bo'lmagan o'quvchi o'z fikrini yozma shaklda ifodalashda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli matn tuzish, bayon va insho yozish jarayonida yangi so'zlarni faol nutqqa kiritishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Leksik mashqlar asosida shakllantirilgan yozma nutq o'quvchilarning ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

3. Grammatika yozma nutqning asosiy tayanchi hisoblanadi. So'z turkumlari, gap bo'laklari, gap turlari haqidagi bilimlar o'quvchilarga grammatik jihatdan to'g'ri va mantiqan izchil matn tuzish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda va murakkab gaplar tuzish, gaplarni o'zaro bog'lash ko'nikmasini shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Grammatik mashqlar orqali o'quvchilar gap tuzilishini ongli ravishda anglay boshlaydilar, bu esa yozma nutqda xatolarning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash ham grammatik bilimlarga asoslanadi va yozma nutqning mazmunini to'liq ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

4. Boshlang'ich ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirish lingvistik bilimlarni amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borilganda yuqori natija beradi. Matn ustida ishlash, reja asosida yozma ish bajarish, savol-javoblar asosida gap va matn tuzish kabi usullar o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Lingvistik asoslar negizida tashkil etilgan yozma ishlar o'quvchilarda nafaqat savodxonlikni, balki mustaqil fikrlash, o'z fikrini yozma shaklda erkin ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishda lingvistik bilimlarning amaliy tatbiqi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni yozma nutqda ongli ravishda qo'llashga yo'naltiriladi. Fonetik mashqlar asosida tovush va harf munosabatini mustahkamlash, bo'g'inlarga ajratish, so'zlarni to'g'ri yozish ko'nikmalari shakllantiriladi. Masalan, diktantlar, eshitib yozish mashqlari, so'zlarni bo'g'inlab yozish kabi topshiriqlar o'quvchilarning savodxonligini oshiradi va imlo xatolarining kamayishiga xizmat qiladi.

5. Leksik yo'nalishdagi mashqlarda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Matn asosida yangi so'zlarni aniqlash, ularning ma'nosini izohlash, sinonim va antonimlarni topish, berilgan so'zlar yordamida gap va kichik matnlar tuzish yozma nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning fikrini aniq va ifodali bayon etishiga yordam beradi.

6. Grammatik mashqlar yozma nutqni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Gap tuzish, gaplarni o'zaro bog'lash, matnni reja asosida yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga doir topshiriqlar o'quvchilarning yozma nutqida mantiqiylik va izchillikni ta'minlaydi. Bayon va insho yozish jarayonida grammatik bilimlarning ongli qo'llanishi o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini yuksaltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi lingvistik birliklarning bosqichma-bosqich o'zlashtirilishini ta'minlash asosida ishlab chiqildi. Topshiriqlar tizimi leksik, morfologik va sintaktik bilimlarni yozma nutqda ongli qo'llashga yo'naltirildi hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olindi. Topshiriqlar tizimi quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

1. *Leksik topshiriqlar tizimi.* Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, so'z ma'nolarini farqlash va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llashga xizmat qildi. Bunda quyidagi topshiriqlardan foydalanildi: berilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gap tuzing; sinonim va antonim so'zlarni topib, ular ishtirokida gaplar yozing; ko'p ma'noli so'zlardan foydalanib kichik matn tuzing.

2. *Morfologik topshiriqlar tizimi.* Bu topshiriqlar so'z turkumlarini farqlash, ularning grammatik shakllarini anglash va yozma nutqda to'g'ri qo'llashga yo'naltirildi. Bunday topshiriqlar quyidagilardan iborat bo'ldi: matndan ot, sifat va fe'llarni topib, ularning grammatik shaklini aniqlang; berilgan fe'llarni zamonlarga ko'ra o'zgartirib yozing; ot va sifat ishtirokida gaplar tuzing.

3. *Sintaktik topshiriqlar tizimi:* sodda gapni aniqlovchi va hol qo'shib kengaytiring; berilgan gaplardan foydalanib bog'lanishli matn tuzing; gap bo'laklarini aniqlab, ularning vazifasini yozing. Mazkur topshiriqlar gap tuzilishini o'zlashtirish, gap bo'laklarini aniqlash va bog'lanishli nutqni shakllantirishga xizmat qildi.

4. *Matn yaratishga yo'naltirilgan rasm asosida 5-7 gapdan iborat hikoya yozing,* berilgan reja asosida matn tuzing, kuzatishlaringiz asosida mavzuga doir matn yarating kabi topshiriqlar tizimidan foydalanildi. Bu topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, izchil bayon qilishini va bog'lanishli yozma nutqni rivojlantirishga qaratildi.

Amaliy faoliyat jarayonida o'qituvchining yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi roli yozma ishlarni tahlil qilish, xatolar ustida ishlash, individual yondashuvni ta'minlash orqali o'quvchilarning yozma nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishi mumkin. Lingvistik asoslarga tayangan holda tashkil etilgan amaliy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozma nutqning samarali shakllanishi bevosita lingvistik bilimlarning tizimli va izchil o'zlashtirilishiga bog'liqdir. Fonetik, leksik va grammatik komponentlarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning yozma nutqida aniqlik, mantiqiylik va izchillikni ta'minlaydi. Maqola davomida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishda lingvistik asoslarning yetakchi o'rin tutishini tasdiqladi. Ayniqsa, fonetik savodxonlikni shakllantirish, lug'at boyligini kengaytirish hamda grammatik bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash yozma nutqdagi xatolarni kamaytirishga va o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodlar natijasida lingvistik yondashuv asosida tashkil

etilgan yozma mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, matn tuzish va o'z fikrini yozma shaklda erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Bu esa boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirish masalasiga ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirish jarayonini lingvistik asoslar negizida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакулина Г.А. Сочинение-описание как средство развития устной и письменной речи первоклассников // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Спецвыпуск №27. – С. 85.
2. Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка / Ф.И.Буслаев. – Л., 1941. – С. 55.
3. Микушова Т.П. Теория и практика развития письменной связной речи младших школьников: краткий курс лекций для бакалавров. – Елец: Елецкий государственный университет им. И.А.Бунина, 2018. – 84 с. – С. 3.
4. Раупова L. Nutq madaniyati: darslik. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, – 138 b. – B. 18.
5. Ушинский К.Д. Собр. соч. / К.Д.Ушинский. – М., 1948. – Т. 2.
6. Шанский Н.М, Тихонов А.Н. Словообразование. Морфология. Ч. 2. – Москва: Просвещение, 1987. – 254 с.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934